

THE PRINCIPLES OF FORMING THE ARCHITECTURE OF ENGLISH AND UZBEK SATIRICAL PROSE

Mukadas Ikromovna MURODOVA

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)
Kattakurgan Branch of Samarkand State University
Kattakurgan, Uzbekistan

INGLIZ VA O'ZBEK SATIRIK NASRI ARHITEKTONIKASINI SHAKLLANTIRUVCHI TAMOYILLAR

Muqadas Ikromovna MURODOVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali
Kattaqo'rg'on, O'zbekiston

ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ АРХИТЕКТониКИ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ САТИРИЧЕСКОЙ ПРОЗЫ

Мукадас Икромовна МУРОДОВА

Доктор философии по филологическим наукам (PhD)
Каттакурганский филиал Самаркандского государственного университета
Каттакурган, Узбекистан

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Murodova M. Ingliz va o'zbek satirik nasri arxitektonikasini shakllantiruvchi tamoyillar.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 270-286.

<https://doi.org/10.36078/1735885290>

Received: November 02, 2024

Accepted: December 17, 2024

Published: December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. To explain the etymology of the term "satirical mode" in world literature and its meaning used in modern literary studies, to reveal the concepts of hero and anti-hero in satirical works, to show the complex nature of the relationship between individuals and society, to determine the principles that form the architecture of English and Uzbek satirical prose, tasks such as researching important aspects of its poetics are gaining importance today. Therefore, the scholars of the field pay serious attention to highlighting the problems and tasks related to a type of artistic creation - satire and humor. Satirical works ruthlessly expose a certain era, social life, vices in society and between people through laughter, and show that they should be abandoned. In world literature, satire is recognized as a unique principle of artistic expression of reality, a type of comedy and a mode of art used in all types of literature - lyrical, epic and dramatic works which can be stated as the topicality of the article. The tasks of the research are to base the genesis and stages of formation of satire, to show its genetic connection with genres such as pamphlet, parody, feuilleton, epigram, parable, caricature, anecdote and its unique poetic features; It is to explain the essence of the term "satirical mode" in modern literary studies, to reveal the socio-life factors that create satire, the principles of expression in different genres, and its content in a historical-comparative aspect. Comparative-typological, biographical, and contextual analysis methods were used in the research process. The purpose of the article is to study the architecture of English and Uzbek satirical prose and to determine its principles.

Keywords: satirical mode; aesthetic category; principles; satirical tragedy; satirical comedy; satirical story.

Annotatsiya. Dunyo adabiyotshunosligida “satirik modus” terminining ilmiy etimologiyasini va zamonaviy adabiyotshunoslikda qo‘llaniladigan ma’nosini izohlash, satirik asarlarda qahramon va aksilqahramon tushunchalarini ochib berish, shaxs va jamiyat munosabatlarining murakkab tabiatini ko‘rsatish, ingliz va o‘zbek satirik nasri arxitektonikasini shakllantiruvchi tamoyillarni aniqlash, uning poetikasidagi muhim jihatlarni tadqiq qilish kabi vazifalar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois soha olimlari badiiy ijodning bir turi — satira va yumor bilan bog‘liq muammo va vazifalarni yoritishga jiddiy e’tibor qaratishadi. Satirik asarlar muayyan davrni, ijtimoiy hayotni, jamiyatdagi va insonlar o‘rtasidagi illatlarni kulgi orqali ayovsiz fosh etadi, ulardan voz kechish kerakligini namoyon etadi. Maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, jahon adabiyotshunosligida satira voqelikni badiiy ifoda etishning o‘ziga xos tamoyili sifatida adabiyotning barcha turlari — lirik, epik va dramatik asarlarda qo‘llaniladigan komiklikning bir turi va badiylik modusi sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotning vazifalari satiraning genezisi, shakllanish bosqichlarini asoslab, pamflet, parodiya, feleton, epigramma, masal, karikatura, anekdot kabi janrlar bilan genetik aloqadorligini, o‘ziga xos poetik xususiyatlarini ko‘rsatib berish; “satirik modus” atamasining zamonaviy adabiyotshunoslikdagi mohiyatini izohlab, satirani yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-hayotiy omillarni, turli janrlarda ifodalanish tamoyillarini, mazmun-mohiyatini tarixiy-qiyosiy aspektda ochishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek satirik nasri arxitektonikasini o‘rganib, uning tamoyillarini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: satirik modus; estetik kategoriya; tamoyillar; satirik tragediya; satirik komediya; satirik hikoya.

Аннотация. Основная цель статьи — изучить архитектуру английской и узбекской сатирической прозы и определить ее принципы. Объяснить научную этимологию термина «сатирический модус» в мировой литературе и его значение, используемое в современном литературоведении, раскрыть понятия героя и антигероя в сатирических произведениях, показать сложный характер взаимоотношений личности и общества для определения принципов, формирующих архитектуру английской и узбекской сатирической прозы — задачи данной статьи. Ученые-литературоведы уделяют серьезное внимание освещению проблем и задач, связанных с сатирой и юмором. Сатирические произведения посредством смеха безжалостно обличают определенную эпоху, общественную жизнь, пороки в обществе и в отношениях между людьми. В статье рассматриваются генезис и этапы формирования сатиры, показывается ее генетическая связь с такими жанрами, как памфлет, пародия, фельетон, эпиграмма, притча, карикатура, анекдот, а также ее уникальные поэтические особенности. Первостепенной задачей является объяснить сущность термина «сатирический модус» в современном литературоведении, раскрыть общественно-бытовые факторы, создающие сатиру и принципы выразительности в разных жанрах, его содержание в историко-сравнительном аспекте. В процессе исследования использовались сравнительно-типологический, биографический, контекстуальный методы анализа.

Ключевые слова: сатирический модус; эстетическая категория; принципы; сатирическая трагедия; сатирическая комедия; сатирический рассказ.

Kirish

Satira — (gr. satira — turli, aralash soʻzidan) oʻtkir hajv. Ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni, ayrim shaxs yoxud ijtimoiy guruhlariga xos kamchiliklarni qattiq masxaralab, tanqidiy ruh bilan yozilgan asar. Satira atamasi keng maʼnoda, birinchidan, shaxsning voqelikka tanqidiy munosabatini, ikkinchidan, tanqidiy ruhdagi tasvir, maqola va badiiy asarlarni anglatadi. Bu ikki tushuncha bir-birini inkor etmaydi. Aksincha, ular oʻzaro mustahkam bogʻliqdir. Har qanday satirik asarning yaratilishiga shaxsning, yaʼni ijodkorning voqelik va kishilarga nisbatan tugʻilgan tanqidiy munosabati turtki boʻladi. Satirik badiiy asarlar, odatda, qoʻshiq va sof sheʼriy asarlardan hajman katta boʻladi. Chunki satirada ijodkorning mavzuga qarashi oʻz sezgi, his-hayajonlaridan ustun turadi. Satirik asarlar turli janrlarda ham nasr, ham nazm shakllarida yaratilishi mumkin. Satira qadimgi Rim adabiyotida Goratsiy va Yuvenal tomonidan koʻplab yaratilgan. Italiya adabiyoti tarixida Imperiya davrida ijod etgan Destim Yuniy Yuvenanishning satirik asarlari ayniqsa mashhur. Jamiyatga tanqidiy nigoh bilan qarash asosan tanqidiy realizmga xos xususiyatdir. Shuning uchun tanqidiy realizm vakillari koʻplab satira asarlarini yaratganlar (25, 87). Lotin tilidagi “satira” soʻzi afsonaviy mavjudotlar, quvnoq va masxara qiluvchi yarim xudolar-hayvonlar — satirlar (qadimgi yunoncha Σάτυροι) — oʻrmon xudolari, unumdorlik iblisleri, yunon mifologiyasida yunon orollarida yashagan quvnoq echki oyoqli jonzotlar) (20, 415–416) maʼnolarini anglatadi. Adabiyotshunoslar talqiniga koʻra, etimologik nuqtai nazardan satura (lotincha — lanx satura) soʻzi bilan ham bogʻliq — “turli xil mevalardan iborat taom”. Keyinchalik u koʻchma maʼnoda — “qorishma, har xil narsa” (nasr va nazm qorishmasi) sifatida qoʻllanila boshlandi. Satira yunon dramaturgiyasiga daxldorligi borasida fikrlar boʻlsa-da, Rim notiqi Kvintilian Rimda yuzaga kelganini taʼkidlab, “Satura butunlay bizniki” (“satura quidem lota nostra est”) deya taʼkidlagan. Satirani qadimgi yunon adabiyotida, xususan, muallifligi Gomerga tegishli boʻlgan “Margit” komik sheʼrida uchratish mumkinligiga qaramay, lekin koʻplab tadqiqotchilarning fikriga koʻra, u Rim zaminida yuzaga kelgan. Adabiyotshunos olim M. M. Baxtin satira termini uch xil mohiyat kasb etishini taʼkidlagan: 1) Rimda paydo boʻlib, taraqqiy etgan (Neviy, Enniy, Lutsiliy, Goratsiy, Persiy, Yuvenal) va yangi davrda neoklassiklar tomonidan qayta tiklangan kichik lirik-epik janr (Matyuren Rene, Bualo, Kantemir va boshqalarning satiralari); 2) ellinizm davrida falsafiy diatrib shaklida paydo boʻlgan sof dialogik janr. Menipp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan “Menipp satirasi” deb yuritilgan, uning yunon tilidagi keyingi namunalari Lusian (miloddan avvalgi II asr) asarida, lotin tilida Varron satirlari (“Saturae Menippeae”), Senekaning “Apokolokintozis” (“Qovoq”) satirasi va Petronning (“Satirikon”) satirik romanlari hisoblanadi. Bu satira shakli toʻgʻridan-toʻgʻri Yevropa romanining eng muhim turini yuzaga kelishiga zamin hozirladi, u qadimda Petronning “Satirikon”ida va qisman Apuleyning “Oltin eshagi” va hozirgi vaqtda Rablening “Gargantua va Pantagruel”, Servantesning “Don Kixot” romanlarida tasvirlangan; 3) ijodkorning oʻz obrazi subyektiga (yaʼni tasvirlangan voqelikka) muayyan (asosan salbiy) munosabati, bu badiiy tasvir vositalarini tanlash va tasvirlarning umumiy xarakterini belgilaydi;

shu ma'noda satira yuqoridagi ikki o'ziga xos janr bilan cheklanib qolmaydi va har qanday janr — epik, dramatik, lirik janrlardan foydalanishi mumkin (21, 12).

Asosiy qism

Djon Entoni Bouden Kaddonning “Adabiy atamalar va adabiy nazariyalar” lug'atida satira terminiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Satira (lotincha satira, keyinchalik satura shaklida). Bu atama kelib chiqish tarixiga ko'ra, pishirishga doir atama bo'lishi ham mumkin. Qadimgi Rim shoiri Yuvenal uni “ollapodrida”, “mish-mash”, “farrago” deb atagan. Rim ritorigi Kvintilian (mil.av. 35–100 y.y.larda) bu atamani Lutsiliyning turli mavzularda yozgan hekzametrlarda yozilgan she'riga nisbatan qo'llaydi. Keyinchalik atama ma'nosi kengayib, satirik ohangdagi asarlarni o'z ichiga oladi, ammo ular shaklan bir-biriga o'xshamaydi. Ba'zi hollarda grekcha “satyros” va “satura” so'zlari orasida chalkashlik bo'lib, satyra shaklidagi so'zga borib taqaladi. Bu so'z ingliz tilida satyre deb yoziladi. Elizabet davri yozuvchilari satira atamasi grekcha satyr so'zidan kelib chiqqan deb hisoblashgan. Bu vaziyatga 1605-yilda fransuz olimi Isaak Kazabon aniqlik kiritgan” (3, 780).

Demak, satira atamasi birinchi bo'lib Kvintilian tomonidan she'r turiga nisbatan qo'llanilgan. Satira dastlab lirik tur janrlarida qo'llanilsa-da, keyinchalik janriy xususiyatini yo'qotib, masal, epigramma, burleska, pamflet, feleton, komediya va satirik romanlarda o'ziga xos xususiyatlarni ifodalash uchun qo'llanilgan. Siyosiy satiraning paydo bo'lishida Qadimgi Rim adabiyotining hissasi beqiyos. Siyosiy satira turli shakl va ma'nodagi she'riy va lirik asarlarni o'z ichiga oladi. Ular orqali turli darajadagi shaxslar, guruhlar, hodisalar tanqid qilingan. Satira shunchaki mavzuni qiziqarli qilish vositasi hisoblanmagan, muallifning odamni yoki aholi holatini kulgi ostiga olishdan maqsadi — ularni o'z turmush tarzini o'zgartirishga qaratilganidir. Ularga ma'nan ta'sir ko'rsatib, tanlagan yo'llari noto'g'ri ekanligini ko'rsatib, kulgi vositasida tarbiyalashdir.

Satira tadrijiy taraqqiyotida badiiy adabiyotning deyarli barcha turlarini qamrab oldi. Satira orqali yozuvchilar o'zi yashab turgan davrning salbiy ijtimoiy hodisalarini hazil, mutoyiba bilan fosh etdilar, xalqqa oshkora namoyish etdilar. Xulosani chiqarish o'quvchining hukmiga havola qilinadi. Qadimgi Rim adabiyotida Goratsiy, Yuvenal, Menipp satirani yuksaklarga ko'targan bo'lsa, Angliya adabiyotida Jonatan Svift, Daniel Defo o'z asarlari bilan o'quvchilar qalbida chuqur iz qoldirdi.

V. Tyupaning ta'kidlashicha, “Badiiy asarlarda umumlashirish va his-tuyg'ularning muayyan “qorishmalari”, hayotni aks ettirishning muayyan turlari mavjud. Bular qahramonlik, tragediya, satira, komediya, idillik, elegizm, drama, ironiya. Badiiylik modusi — yaxlitlikning u yoki bu turi bo'lib, u nafaqat qahramon va sharoitni, muallif ijodiy niyatini va kitobxonning idrokini, balki qadriyatlar tizimini ham anglatadi. Badiiylik markazida shaxs va unga qarama-qarshi turgan tashqi olamning o'zaro munosabati, “men — olamda” konsepsiyasi yotadi. Badiiylik modusi esa shaxs mavjudligining ruhiy-amaliy tajribasiga estetik analogiya sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni tragiklik, satiriklik, dramatiklik, eng avvalo, shaxsning o'z-o'zini anglashi va namoyon etishi shakllari bo'lib, badiiy asarda ulardan biri asosiy o'rin tutadi (19, 185–187).

D. Quronov, Z. Mamajonov va M. Sheralievaning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da satira va yumorga quyidagicha izoh berilgan: “Satira obyektida idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtai nazaridan to‘la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektidagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko‘zda tutiladi. Adabiyotning badiiy arsenalida kinoyani yuzaga chiqaruvchi qator badiiy usul va vositalar mavjud bo‘lib, ularga grotesk, karikatura, parodiya, kalambur, zakiylik, ezop tili, komik kontrast kabi qator vositalarni misol qilish mumkin. Ushbu vositalarning bir qismi obyektini deformatsiyalangan tarzda tasvirlashga, boshqa bir qismi esa subyektiv munosabatni turli yo‘sin va darajada ifodalashga xizmat qiladi (14, 141).

O‘tkir ijtimoiy satirik ruhni ifodalashda adiblar badiiy tasviriy vositalardan foydalanadi. “1-jadvalga qarang”.

1-jadval

Termin nomi	Termin izohi
Grotesk	(fransuzcha grotesk — “g‘aroyib”, “kulgili”; italyancha grottesco — “g‘aroyib”) — oddiy va murakkab, baland va past, kulgi va fojiani g‘ayrioddiy, hayratlanarli tasvirlarda birlashtirgan badiiy ifoda vositasidir. Groteskning asosi kontrastdir.
Karikatura	(italyancha: caricare — “bo‘rttirish”) bu tasviriy san‘at janri bo‘lib, unda asar qahramonlari satirik yoki yumoristik shaklda chiziladi. Muallif karikaturada qahramonlarning qiyofasini, xulq-atvorini masxara qilish maqsadida ataylab buzib ko‘rsatadi.
Parodiya	(yun. παρά — “qarshi”, zid ὁδὴ — “qo‘shiq”) biror san‘atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo‘li bilan yaratilgan kulgili asar. Ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotdagi ayrim voqealar ham parodiyaga mavzu bo‘lishi mumkin.
Kalambur	(fr. calembour) — bir kontekstda bir so‘zning turli ma‘nolarini yoki turli so‘zlarni yoki tovush jihatidan o‘xshash iboralarni ishlatadigan adabiy usul. Ikkita yonma-yon so‘z talaffuz qilinganda, uchinchisini hosil qiladi yoki so‘zlardan biri omonim yoki ko‘p ma‘noli bo‘ladi.
Ezop tili	(masalnavis Ezop nomi bilan atalgan) — adabiyotdagi yashirin yozuv, muallifning fikrini (g‘oyasini) ataylab yashiradigan allegoriya. Unda an‘anaviy allegorik vositalar (allegoriya, ironiya, parafraz, ishora) orqali fikr bildiriladi. Qul Ezop o‘z masallarida xo‘jayinlarning illatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsata olmaganligi sababli, u ularning tasvirlarini tegishli xususiyatlarga ega hayvonlarning tasvirlari bilan almashtirgan. Shu sababli allegoriya tili Ezop deb ataladi.

***Satiraga asos bo'lgan kinoyani yuzaga chiqaruvchi
badiiy usul va vositalar***

Satirani yaratishda yozuvchilar uslubidagi xilma-xillik, o'tkir va shiddat bilan rivojlanadigan syujet, kuchli darajadagi shartlilik asosiy mohiyat kasb etadi. Tilshunos olim S. Park xulosalariga ko'ra, ma'noga boy satirik nutq — mavjud qoidani masxara qiladigan va hukmron gegemonlikni qoralaydigan nutqdir. Zulmning yashirin kimga yo'naltirilganini jamoat diqqat markazida ochib berganda, satirik nutq muvaffaqiyatli bo'ladi. Satira kulgi uyg'otadi, qarshilikni kuchaytiradi va odamlarni hukmron nutqning mafkuraviy tazyiqlaridan ozod qiladi" (8).

Ingliz yozuvchisi Jonatan Svift fikriga ko'ra, satira shunday turdagi qadahki, guvohlar har kimning hattoki o'zlarining yuzlarini kashf etadilar (17). Yozuvchi asarda voqelikni satirik tanqid qilar ekan, hech kimni, hattoki o'zini ham ayamay, barcha tafsilotlarni ochiq va shaffof bayon etishi, turli-tuman qiyofalarni kashf etishi ijodkor tomonidan e'tirof etilgan.

Ingliz satirigi Ivlin Vo qarashlariga ko'ra, "Satira — davr masalasidir. Satira barqaror jamiyatda gullab-yashnaydi. Ushbu janr nomuvofiqlik va ikkiyuzlamachilikka qaratilgan" (14). O'zbek satirasi ustasi A. Qahhor satirani mikroskopga o'xshatadi: "Mikrob qanchalik xavfli bo'lsa, uni shunchalik katta qilib ko'rsatadigan mikroskop kerak. Satira o'tiga uchragan kishi vijdoni bo'lsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni bo'lmasa, og'zidan ko'pik sochib, yozuvchining ketidan bolta ko'tarib yuguradi" (8, 141). Adib to'la ma'noda haq, chunki satira ayovsiz bo'lib, kulgi ostiga olingan shaxs uni turlicha qabul qiladi.

Satira — komediyaning ayniqsa o'tkir va ayovsiz shakli bo'lib, u istehzo qilinadigan hodisa yoki xarakterning mohiyatini inkor etuvchi yuqori estetik va axloqiy ideallarga zid ravishda boshqasini solishtirish orqali namoyon bo'ladi. Satirik asarlardagi g'oyalar, aksincha, aksil-idealning fosh qilinishi orqali tasdiqlanadi. N.G. Chernishevskiyning so'zlariga ko'ra, satira nafaqat tomoshabinlarni kuldiradi, balki ularni larzaga soladi, nafaqat kulgi, balki g'azab va nafratni ham uyg'otadi. Satira hatto kulgisiz ham bo'lishi mumkin, ammo aql-idroksiz emas (17). Olim satirada chuqur mushohada bo'lishini qat'iy ta'kidlaydi.

Metaforalardan foydalangan holda, amerikalik yozuvchi Piter De Friz satira va hazil o'rtasidagi farqni shunday tushuntirgan: "Satirik o'ldiradi, hazilchi o'ljasini tiriklay qaytaradi — uni yana bir imkoniyat uchun yana qo'yib yuboradi" (12). Nega satirik o'ldirishi haqida mulohaza yuritilsa, aynan satirada ko'tarilayotgan muammo tag-tubi bilan qo'porib tashlanishi, ijobiy yechim topishi talab etiladi.

Har doim satira gumanizm, ma'rifat va go'zallik g'oyalariga xizmat qilgan, satirik asarlar mualliflari haqiqatning sehrli tomonlarini turli xil hazil-mutoyibalar bilan ochib berib, axloq, ma'naviyat, ma'rifat va intellektual rivojlanish fazilatlariga da'vat etgan. Satira voqelikning noaniq tomonlari karikaturada tasvirlanadigan alohida san'at turi sifatida belgilanadi. Adabiyotda satiraning kuchi satirikning jamiyatdagi mavqei qanchalik muhimligiga, u ishlatgan satira vositalariga va uslubining jasoratiga bog'liq. Abdulla Qodiriy adabiyot dunyosida jiddiy va hajviy tanqid borligini, hajviy tanqid ommaviy xarakterga egaligini quyidagicha

izohlaydi: “Jiddiy tanqid o‘zining kuzatgan nishonasi ustida o‘zgarishlar yasasa ham, ammo ko‘pincha avomga majhulroq bo‘lib o‘tadi. Aytish mumkinki, jiddiy tanqid bahs qilingan masalaning o‘z ahliga, ya’ni yuqori tabaqa ziyolilarga maxsus kabidir. Undan so‘ng, jiddiy tanqid turmushning har bir burchagiga kirib yurish uchun ham tanazzul etolmaydi. Bu jihat bilan qaralsa-da, u ommaviylik xususiyatidan yiroqdir.

Adib kulgili holatlarni yozganda, uni siz yasagan bo‘lib ko‘rinmang, balki o‘zi yasagan bo‘lsin, o‘z holini o‘zi arz qilsin, deydi. Toki, o‘quvchingizgina emas, hatto kulgida qolgan raqibingizning o‘zi ham mojarosiz siz bilan birgalashib kulishmakka majbur bo‘lsin (13, 8).

Adabiyotda bir necha xil kulgi yo‘llari bo‘lsa ham, (masalan, piching, kesatish, kinoya, tag‘ofil va boshqalar) lekin eng mo‘tabari xarakter kulgisidir. Yozuvchining mahorati shundaki, “kulgida qolgan raqibingizning o‘zi ham mojarosiz siz bilan birgalashib kulishmakka majbur bo‘lsin” fikrida iste’dod barobarida, uning pok samimiyati ham seziladi.

Ingliz olimi M.X. Abramsning “Adabiy atamalar lug‘ati”da “satira — masxara qilish; nafrat va g‘azabni inkor qiluvchi munosabatni uyg‘otish orqali uni batamom yo‘q qilishga yo‘naltirilgan adabiy san‘at, deb ta’riflangan. Komediya dan farqi shuki, komediya da kulgi uyg‘onadi, ammo satirada masxara qilinadi; ya’ni kulishni qurol sifatida tanqid ostidagi shaxs yoki holatga qarshi ishlatadi” (1, 275).

Routledj adabiy atamalar lug‘atida esa “Satira o‘z ichki shakliga ko‘ra, dastavval, janr sifatida aniqlangan, ammo u faqatgina janr emas. Unda muallif fantastik va absurd bo‘lgan hajv vositalarini mohirona qo‘llab, biror obyektga hujum qiladi va kulgi uyg‘otadi. Satira bu aybni fosh etish emas, balki g‘ayritabiiy yumor. Satirani komediya dan farqlab turadigan narsa shuki, u aqlsizlik yoki insoniyat nuqsonlariga chidab turolmaydi”, deya ta’rif keltirilgan (2, 211).

Satiraning eng keng tarqalgan uch turi bo‘lib, har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega va hatto qo‘pollik darajasida ham farq qiladi. Ba’zilar shunchaki biron-bir aybsiz o‘yin-kulgini uyg‘otishga intilishsa, boshqalari “o‘zlarining mavzularini to‘xtatilishi kerak bo‘lgan yovuzlik”, deb bilishadi (6, 365).

Eng ommalashgan satira turlari quyidagilardan iborat:

- Goratsiy uslubidagi satira,
- Yuvenal uslubidagi satira,
- Menipp uslubidagi satira.

1. Goratsiy uslubidagi satira. Satira turlari ichida Rim satirigi Goratsiy nomi bilan atalgan satira eng yumshoq va yengilligi bilan boshqalaridan farqlanadi.

Goratsiy tomonidan kiritilgan eng muhim yangilik — haqiqiy hayot va odamlarni o‘rganib, istehzo va xayrixoh hazillardan foydalanib, nuqsonlarini ko‘rsatishdir. Uning satiralarida aks etgan badiiy tamoyil “haqiqatni aytish uchun kulish”, ya’ni kulgi orqali bilimga chorlovdir. Tanqidni ongli qabul qilish uchun Goratsiy satirani kitobxon va o‘zi o‘rtasidagi do‘stona suhbat sifatida tasavvur qiladi. Adib shu bois o‘z satiralarini “Suhbatlar” deb ataydi, keyinchalik ularni “Bion uslubidagi suhbatlar” deya ta’riflaydi. Satiralari axloqiy va falsafiy mavzularda — taqdirdan norozilik va shaxsiy manfaatlar, do‘stlar bilan muomala qilish

haqida bahslarga bag'ishlangan. Goratsiy uslubidagi satiralarga quyidagi asarlar misol bo'la oladi: Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" (1726), Mark Tvenning "Geklberri Finnning sarguzashtlari" (1884) asarlari.

2. Yuvenal uslubidagi satira. Yuvenal satirasining o'ziga xosligi uning keskin ayblov pafosidadir. Goratsiyning oqilona cheklovi unga begona. Birinchi satirada Yuvenal o'zining tanqidiy mulohazalarini e'lon qiladi. U zamonaga xos o'tkir mavzularga javob berish o'rniga, mifologik qahramonlarni kuylaydigan shoirlarni ma'qullamaydi. U juda ko'p adolatsizlik va illatlarni fosh qiladi, chinakam "jar soladiki", biror shoir befarq qarab turolmaydi (23). Shunday qilib, ularning uslubida an'anaviy hazil kamroq, kuchli istehzo mavjud. Yozuvchining bunday e'tirozlari zahirida ularni o'zgartirishga bo'lgan chaqiriqlarni ko'rish mumkin. Quyidagi asarlar bunga misol bo'la oladi: Jorj Oruellning "Molxona" (1945), "1984" (1949), Rey Bredberning "Farangeyt bo'yicha 451" (1953) asarlari.

3. Menipp uslubidagi satira. Menipp satirasi muayyan shaxslarga emas, balki aqliy munosabat va nuqtai nazarga qaratilgan. Menipp satirasi asosan nasrdagi satira shakli bo'lib, u hajmi va tuzilishi jihatidan romanga o'xshaydi va shaxslar yoki tashkilotlar emas, balki ruhiy munosabatlarni tanqid ostiga olishi bilan xarakterlanadi. Menipp satirasining boshqa xususiyatlari — parodiya va mifologiyaning turli shakllari, an'anaviy madaniyatdan meros bo'lgan miflarning tanqidi, rapsodik xarakter, qisqa-qisqa hikoyalardan iboratligi, ko'plab turli maqsadlar uyg'unligi, uslublar va nuqtai nazarlar o'rtasidagi tezkor adabiy harakatdir. Varron o'zining Menipp satiralarida odamlarga ko'ngil ochish va shu bilan birga foyda keltirishga intiladi, ya'ni kulib jiddiy narsalarni aytadi va hayotning haqiqiy qadriyatlari haqida fikr yuritishga chorlaydi (26, 22).

Quyidagi asarlarda ushbu usul an'analari mavjud: Luiz Kerrollning "Alisaning mo'jizalar mamlakatidagi sarguzashtlari" (1865), Duglas Adamsning "Avtoulovning koinotga sayohati", Jeyms Joysning "Finnegansning uyg'onishi" (1939) asarlari.

Rim satirasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri — satirik asarlar mualliflarining muayyan shaxsga, voqelikka doimiy e'tiborini oshirishda ifodalangan sof realizmdir. Bu xususiyat uzoq vaqtdan beri lotin adabiyotiga xosdir. Qadimda satiraning ikki shaklini ajratib ko'rsatishgan: biri — faqat she'riy — shoirlar tomonidan yaratilgan: Lutsiliy, Goratsiy, Persiy va Yuvenal; ikkinchisi esa o'ziga xos she'r va nasr aralashmasidan iborat shakli olim va yozuvchi Varron tomonidan Rim adabiyotiga kiritilgan. Rim adabiyotidagi ushbu "menipp satirasi"ning yorqin rivoji Neron davrining ikki ajoyib asari: Senekaning "Ilohiy Klavdiyning apofeozi" va Petroniyning "Satirikon" romanida namoyon bo'ladi.

Olima L. Jalilova "satira" va "yumor" tushunchalari borasida hali hanuz bir to'xtamga kelinmaganini, turli munozaralar atroflicha tadqiq etish kerakligini anglatishini ta'kidlaydi: "Ba'zan satiraga lirika, doston va dramalar bilan bir qatorda (L. Timofeev, Ya. El'sberg, A. Makaryan va boshqalar) hatto adabiyotning to'rtinchi turi sifatida qaralib, haqiqatni aks ettirishning o'ziga xos usuli deb hisoblanadi (I. Eventov). Bugungi kunda satira — shaxs xatti-harakatlarini tanqid qilish uchun ishlatiladigan juda kuchli badiiy shakl. Ushbu shaklning xususiyatlari olimlar tomonidan

turlicha aniqlangan. Satira haqidagi bir qancha tanqidiy kitoblar muallifi M.D. Fletcher satira tarixiy voqelikning ba'zi jihatlarini masxara qiladigan ijtimoiy verbal agressivlik, deb biladi (24, 11).

Fikrimizcha, satira jamiyat hayoti uchun muhim bo'lib, unda har bir davrning o'ziga xos kamchiliklari, inson xatti-harakatlaridagi nuqsonlar ayovsiz masxaralanib, qattiq kulgi ostiga olinadi. Satirada tanqidiy ruh kuchli bo'lib, kamchilik va nuqsonlardan voz kechish maqsad qilinadi.

XX asrda satira dunyo adabiyotida yangi taraqqiyotni boshladi. Satira va yumor hamma adabiy turlar bilan qorishib ketib, gibril janrlarni paydo qildi: satirik she'r, satirik masal, satirik hikoya, satirik qissa, satirik roman, satirik komediya, satirik tragediya. Aslida, satira ta'riflari universal emas. U barqaror jamiyatda gullab-yashnaydi va bir xil axloqiy me'yorlarni, nomuvofiqlik va ikkiyuzlamachilikni fosh etishga qaratiladi. U shafqatsizlik va ahmoqlikni bo'rttirib ko'rsatib beradi. Satirik asardan to'g'ri xulosa chiqarish lozim. Haqiqiy satirik asarlar jamiyatdagi, insonlardagi nuqsonlarni tuzatish uchun ogohlik da'vatidir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, mavzusiga ko'ra satira maishiy, ijtimoiy, siyosiy, harbiy kabi turlarga ham ajratiladi. Ijtimoiy ahamiyatga molik hodisalarga oid satirik asarlar siyosiy kurashlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Satiraning yuzaga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti borasidagi adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy mulohazalariga asoslanib, XX asr ingliz va o'zbek adabiyotida satirik an'analar tipologiyasi quyidagicha tasniflandi:

1) ijtimoiy muammolardan shaxsiy-maishiy muammolarga ko'chish;

2) satirik asarlarda g'oya va mavzu maydonining kengayishi;

3) ijtimoiy, ma'naviy, didaktik masalalarga e'tiborning kuchayishi;

4) insonparvarlik mazmuni va psixologizmning chuqurlashuvi;

5) xalqning o'zligi va mentaliteti masalalariga murojaat etish;

6) satirik va ayni paytda falsafiy allegorik asarlarning yaratilishi;

7) satirik asarlar yozishda badiiy detaldan samarali foydalanish;

8) xarakterlar mantig'ini real voqelik mantig'i bilan kishini ishonтира oladigan darajada asoslay olish;

9) inson ruhiyati mohiyatini, yetakchi xususiyatlarini ijodkorning estetik ideali nuqtai nazaridan butun murakkabligi bilan qamrab olgan holda aks ettirish;

10) hayot mazmunini falsafiy mushohada etish.

Ivlin Vo va Abdulla Qahhorning voqelikni satirik tanqid qilish mahoratlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ivlin Vo va Abdulla Qahhor satirik hikoyalari qiyosiy aspektda tahlil qilinganda quyidagi mushtaraklik aniqlandi:

1. Kompozitsiya va syujet tipologiyasi ("Tubanlikdan tashqarida" va "Bashorat").

2. Satirik obrazlar mushtarakligi (Tom "Tanazzulga yuz tutgan sevgi" va Turobjon "Anor" umidi sarobga aylangan obrazlar).

3. Ma'nan qaramlik g'oyasi (Henti "Dikkensni yoqtirgan odam" Faxriddin "Boshsiz odam").

4. Satirani yuzaga keltiruvchi motivlar mushtarakligi (“Tubanlikdan tashqarida” va “Bashorat”da tush, seyr motivlari; “Tanazzulga yuz tutgan sevgi” va “Bemor”da avtobiografik motiv).

Satirik hikoyada badiiy detaldan foydalanish (ho‘kiz (“O‘g‘ri”), jo‘natilmay qolgan taklifnomalar “Bella Fliz ziyofat berdi”).

Ivlin Voning “Tanazzulga yuz tutgan sevgi”, “Muvozanat”, “Dikkensni yoqtirgan odam” hikoyalarini mutolaa qilar ekanmiz, qahramonlardagi umidsizlikka sabab nima? Bunday tuyg‘uning yuzaga kelishida nima yoki kim sababchi ekanligini mushohada qilganda quyidagi omillarga e‘tibor qaratdik:

1) Ivlin Voning hayoti va ijodini o‘rganish. Adibning kundaligi orqali adibning bolaligi, bu davrning ijodkor ruhiyatiga ta‘sirini tahlil qilish;

2) hikoyalarda tasvirlangan ijtimoiy muammolarga aynan adib avtobiografiyasi asosida yondashish;

3) “Love in the Slump” (“Tanazzulga yuz tutgan sevgi”) “The Balance” (“Muvozanat”), “The Man Who Liked Dickens” (“Dikkensni yoqtirgan odam”) hikoyalarini mutolaa qilish jarayonida obrazlarning umidsizligiga sabab bo‘lgan omillar — detallar, kishilar, voqealarni aniqlash;

4) Tom, Adam, Henti obrazlari orqali erkak psixologiyasini tahlil qilish va ularda o‘g‘irlangan umidlarning davr ruhi bilan hamohang ekanini aniqlash.

Ivlin Vo va Abdulla Qahhor o‘z davrining yetuk satirik yozuvchilaridir. Ular deyarli bir davrda ijod qilishdi, noyob adabiy durdonalar yaratishdi. Har ikkala adib ijodida satiraning ma‘naviy ta‘sir kuchining o‘tkirliги yaqqol ko‘rinib turadi. O‘tgan davr mobaynida mazkur adiblarning asarlari va ijodi muayyan darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, lekin ularning milliy va umumbashariy omillari, axloqiy-falsafiy, ma‘rifiy-didaktik, badiiy xususiyatlari ilmiy-nazariy tizim asosida qiyosiy tadqiq qilinmagan.

V. Belinskiy ilmiy mushohadasiga ko‘ra, “Yozuvchi qaysi millatga mansub bo‘lsa, unda o‘sha millat ruhi hukmron. Muhit, sharoitni tasvirlash alohida maqsad emas, chunki qahramon shu muhit, sharoitda harakat qiladi va yashaydi. Bundan tashqari, yozuvchi urf-odatlarini aks ettirishni alohida maqsad qilib olmagan, u etnograf emas, u hayotni aks ettiradi. Har bir xalq poeziyasida mamlakat tabiati (joyi) va ruhi (millati) aks etadi” (22, 156). Ivlin Vo va Abdulla Qahhor hikoyalari kuchli psixologizm ruhi bilan sug‘orilgan. Ikkala yozuvchi ham psixologik tasvirni qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari orqali mohirona bayon etgan. Natijada, Ivlin Vo va Abdulla Qahhor hikoyalaridagi hayotiylik va kishi xarakterining yorqin, esda qolarli tarzda berilishi singari fazilatlar yuzaga kelgan. Ikkala yozuvchi uslubining yana bir mushtarak tomoni shundaki, qahramon nutqini xarakter va holatiga mos kelgan holda berilishidir.

Ivlin Voning ko‘p sonli hikoyalari ham hayotda iz qoldirmayotgan, beparvo, loqayd, umidsiz, maqsadsiz insonlar hayoti haqida hikoya qiladi. Erkak qahramonlarni umidi so‘ngan, maqsadsiz va loqayd qilib tasvirlashning zahirida kuchli istehzo yotadi. Ivlin Voning umidi sarobga aylangan, maqsadsiz erkak obrazlari Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidagi Sotiboldi obraziga, “O‘g‘ri” hikoyasidagi Qobil bobo

obraziga o'xshaydi. Ular oldin kimgadir yo nimagadir qattiq ishonib, umid bog'lagan umidvor, ma'sum insonlar. Ammo hikoya so'ngida qahramonlarning umidlari sarobga yuz tutadi, so'nadi. Ivlin Vo ko'pchilik qahramonlarini Tom deb nomlagan. Yozuvchining kundaligidan ma'lumki, Tom Driberg yozuvchining yoshlikdagi do'sti bo'lgan. Tom obrazi faqat ish bilan mashg'ul, oilasi va do'stlari orasida bo'shliq paydo bo'lgan, uni faqat buxgalteriyadagi hisob-kitoblar xavotirga solar edi. Asar jahon inqirozi davri (1933-yil)da yozilgan bo'lib, yozuvchi iqtisodiy inqiroz hamda insonning shaxsiy hayotidagi inqirozni mohirona parallel tasvirlagan. Hikoyadagi inqiroz faqat Tomning inqirozi emas, o'sha davrdagi umidlari so'ngan Britaniya erkaklari inqirozidir. Dunyoda kechayotgan jahon inqirozi ularning hayotini butkul o'zgartirdi. Asarda yozuvchi tasvirlaganidek, inqiroz paytida hech narsaga chidab bo'lmasdi. Bu og'ir vaziyat insoniyat hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. Asar mazmunidan shu anglashiladiki, yozuvchi tarixiy haqiqatni badiiy haqiqatga sodiqlik mezoni asosida aylantira olgan.

Xuddi shunday hayotiy haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirgan adiblar o'zbek adabiyotida ham ko'p. O'zbek adabiyotida kam sonli qahramonlar bilan katta g'oyalarni tasvirlash mahorati aksariyat ijodkorlarga xos. Aynan hikoya janrida kam sonli qahramonlar ruhiyati va ijtimoiy ahvoli orqali butun bir davrga xos bo'lgan dolzarb muammolarning yoritilishini Abdulla Qahhor ijodi misolida kuzatamiz. Adibning o'tmish haqidagi hikoyalarida qahramonlardagi umidsizlik tuyg'usi nafaqat hikoya bosh qahramonlarining, balki millat fojiasi ekanligi anglashiladi. Ayniqsa, "Bemor", "O'g'ri", "Anor" hikoyalarida o'g'irlangan umid motivi aks etgan. Tadqiqot jarayonida aynan yuqorida nomi keltirilgan hikoya qahramonlarining umidsizligi, bunga sabab bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy omillar va ularning satirik talqiniga e'tibor qaratildi.

Adabiyot azaldan millat dardini yorqin bo'yoqlarda tasvirlagani, xalqning ijtimoiy va ruhiy holatini yoritib, mushkul damlarda unga dalda bo'lgani uchun ham qalbga yaqin san'at turidir. Ammo yaratilgan har qanday asar ham o'zida umumbashariy g'oyalarni, insonning eng nozik kechinmalarini haqiqiy hayot darajasida tasvirlashga qodir emas. Ma'lumki, hikoyachilik har qanday adabiyotning hozirjavob janrlaridan biridir. Bu janr o'zbek adabiyotida yangi voqelik zaminida, jahon realistik hikoyachiligining samarali ta'sirida shakllandi va davr talabiga ko'ra o'sa boshladi (11, 56). "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" nomli adabiy terminlar lug'atida keltirilishicha, "Kichik hikoya bu novellaga o'xshash, katta hajmga ega bo'lmagan adabiy nasriy hikoyadir, o'zini alohida kitob qilib chop etishga esa juda qisqadir. Bunday hikoya, odatda, bir yoki ikki qahramon ishtirokidagi yagona bir voqeaga asoslanadi hamda ijtimoiy manbaga tayanadi" (15, 256).

O'zbek adabiyotida qisqa hikoya yaratish mahorati natijasida Abdulla Qahhorning o'ziga xos maktabi shakllandi. Ayniqsa, qahramonlarning qalb kechinmalarini, ruhiy azoblanishlarini, og'ir damlarda umidsizlikka tushib qolishlarini tasvirlash orqali millat dardini mahorat bilan yoritish barcha ijodkorlarning qo'lidan kelavermaydi. Aytish mumkinki, Ivlin Vo ham, Abdulla Qahhor ham o'zining o'tmish

haqidagi hikoyalarida ana shunday tasvirni mahorat bilan yoritgan adiblardir.

Buyuk rus yozuvchisi M.Gorkiy ta'riflaganidek, "Yozuvchi o'z qahramonlariga aynan jonli kishilarga qaragandek qarashi kerak, ularning jonli bo'lishlari uchun esa yozuvchi har bir qahramonning nutqida, harakatida, jussasida, yuzida, jilmayishida, ko'z o'yinida va hokazolarda xarakterli, o'ziga xos original xususiyatlarini qidirib topib, ta'kidlab ko'rsatishi, qayd qilishi zarur" (4, 145). Ikkala yozuvchi asarlarini sinchiklab o'qigan kitobxon ulardagi qahramonlar hayotiyiligiga, hayotda ham shunday odamlar borligiga amin bo'ladi. Asarlardagi voqealar ham, qahramonlar ham jonli. Yozuvchilarning hikoyalari tahlili o'ziga xos xususiyatlar bilan birga universal jihatlar ham mavjudligini ko'rsatdi. O'sha davrdagi og'ir vaziyat sababmi asar so'ngida ikkala yozuvchining erkak obrazlari umidsiz holatga tushadi, ya'ni umidlari sarobga aylanadi.

Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasining vujudga kelishini quyidagicha ta'riflaydi: "Mening "O'g'ri" degan hikoyam 1936-yili, xuddi Chexov asarlarini berilib o'qib yurgan davrimda yozilgan edi. Hikoya bolaligimda qurshab olgan turmush, eski davrni ko'rsatishga bag'ishlangan. Ammo men "Anor"dagi Babar, "Bemor"dagi o'zimning onam ("Ming bir jon"dagi To'raxon ayaning qizi) singari, bu hikoyada "model" xizmatini o'tagan odamni ko'rgan, voqeaning shohidi bo'lgan emasman... Kunlarning birida xotira daftarimga xalqning hazil-mutoyibalaridan "Yo'qolmasdan ilgari bormidi?" degan iborani yozib qo'ydim. "O'g'ri" hikoyamni yozayotganimda, shu ish berib qoldi. Shunchaki beg'araz hazil uchun aytiladigan bu iborani kekse dehqon ho'kizi o'g'irlanganidan shikoyat qilib borganda, aminning tilidan aytirgan edim, o'tkir piching ma'no kasb etdi. Mening ixtiyorimdan tashqari ijtimoiy umumlashgan kuchga ega bo'ldi, ayni chog'da individual shaxs xarakterini ochib yubordi" (10, 214).

Ijodkorning "Anor", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalarini mutolaa qilar ekanmiz, qahramonlardagi umidsizlikka sabab nima? Bunday tuyg'uning yuzaga kelishida nima yoki kim sababchi ekanligi quyidagi mushohadalarni yuritishga turtki bo'ldi. Buning uchun quyidagi omillar tahlilga tortildi:

1) Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish. "O'tmishdan ertaklar" qissasi orqali adibning bolaligi, bu davrning ijodkor ruhiyatiga ta'sirini tahlil qilish;

2) hikoyalarda tasvirlangan davrning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti haqida ma'lumotlar to'plash;

3) "Anor", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalarini mutolaa qilish jarayonida obrazlarning umidsizligiga sabab bo'lgan omillarni: detallar, kishilar, voqealarni aniqlash;

4) Turobjon, Sotiboldi, Qobil bobo obrazlari orqali erkak psixologiyasini tahlil qilish va ularda o'g'irlangan umidlarning davr ruhi bilan hamohang ekanini aniqlash.

Abdulla Qahhorning otasi temirchi bo'lgani bois adibning bolaligi Farg'onaning ko'plab qishloqlarida o'tgan. Oilaviy musofirchilik tufayli Abdulla bolaligidan "ichimdagini top", "odamovi", "uyatchan" bo'lib o'sdi. "O'tmishdan ertaklar" qissasining ikkinchi hikoyasi "Indamas" deb nomlanadi. Unda adib "Qo'shariq" mahallasida kechirgan voqealarni

yodga oladi. “Oq terak, ko’k terak” o’ynayotganlarida uni ham “kerak” deb tanlashlarini intiqib kutadi, u ham yugurib borib, safni buzishni orzu qiladi. Ammo bolalar uni “kelgindi” deb haqorat qilishadi. “Kelgindi, kelgindi it” (9, 198) degan gapni Olim buvadan eshitganida, bu so’z haqoratdan tashqari inson hazar qiladigan ma’no ifodalashini ham angelaydi. Adib: “Cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi”, deya yozar ekan, uning o’sha yoshda o’ziga yaqin bir do’st topa olmay, “indamas” laqabini orttirgani, ruhan azoblangani, yolg’izlik va yo’qchilikdan qiynalishi keyinchalik yozuvchida kishilarning eng nozik hislarini tuyish qobiliyatining shakllanishiga sabab bo’lgan bo’lsa, ne ajab. Zero, adibning achchiq qismati va o’zida his qilgan o’sha bolalik xotiralaridagi umidsizlik uning Sotiboldi (“Bemor”), Turobjon (“Anor”), Qobil bobo (“O’g’ri”) kabi qahramonlari hayotida ham uchraydi. Ammo ulardagi umidsizlik bevosita davr bilan ham chambarchas bog’liqdir.

Aynan biografik omillar har ikki adib ijodida voqelikni satirik yo’sinda ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Nochorlik tufayli jamiyat va yaqinlaridan ozor chekkan ijodkorlar voqealarni o’z tiynatidan sizib chiqqandek tasvirlaydi. Abdulla Qahhorni “indamas” holatiga tushirib qo’ygan ijtimoiy muhit keyinchalik adib tomonidan shunchalar ayovsiz va oshkora tasvir “tig’i”ga uchradi, nafaqat yozuvchi zamondoshlari, balki kelajak avlodlar adib asarlari orqali bu davrning satirik manzarasini tasavvurlarida bemalol gavdalandira oladilar.

Abdulla Qahhor hikoyalari mazmuniga hamohang asarlar Ivlin Vo ijodida ham mavjud. Ivlin Voning “Muvozanat” hikoyasi Adam Dours va Imogen Kuestning baxtsiz sevgisi haqida hikoya qiladi. Hikoyada adib hayot hodisalaridan badiiy to’qima yaratgan. Selena Hasting qalamiga mansub muallif biografiyasini o’qir ekansiz, unda Ivlin Voning birinchi ayoli erini suymaganligi haqida dalillar bor: *“Tell Evelyn it wasn’t your fault”, Nancy Mitford said, “and that you love him.” “But I don’t love him”, She-Evelyn replied, going on to confess that she had never loved her husband, had married only to get away from home”* (5, 195).

“Muvozanat” hikoyasidagi Imogen ham asar qahramoni Adamni sevmaydi. Imogen sevgini rad etgandan keyin, Adam o’zini daryoga cho’ktirmoqchi bo’ladi. Bu harakatidan so’ng o’zining daryodagi aksi bilan o’lish istagi va yashash istagini muhokama qiladi. Hikoyada hayot va o’limning muvozanati haqida so’z borib, shaxsning taqdiri muhim emas, deb xulosa qilinadi. Daryodagi aksi Adamga: *“That is the balance then-and in the end circumstance decides”* deydi. Adam ham bu fikrni ma’qullaydi. Ushbu hikoyada Ivlin Voning hayot tajribasidan lavhalar berilgan: Adamning Oksfordda san’at maktabida o’qishi, yakkalanib yurishi, o’zini o’ldirishga harakat qilishi, sevgan ayolining unga nisbatan beparvoligi. Chuqur tushkunlikka tushgan Ivlin Vo ham o’z joniga qasd qilishga uringani muallif avtobiografiyasidan ma’lum. Bu shuni anglatadiki, hayot hodisalari va ijtimoiy omillar muallifni ijod qilishga, badiiy obrazlar yaratishga, satirik asarlar yozishga undaydi.

Jahon inqirozi (1929–1933) yildan oldin yozilgan “Muvozanat” (1926) asari inqirozdan oldingi qiyinchilik davrini, ya’ni iqtisodiy taqchilikni qahramonlar nutqi orqali tasvirlab bergan:

— *“Good morning, Imogen.”*

— *“Yes, quite safely-very tired though.”*

- *“I can’t, Imogen- for one thing I haven’t the money.”*
- *“No, you can’t afford it either. Anyway, I’m dining with Lady R. tonight. You can tell me then, surely?”*
- *“Why not?”*
- *Who lives there?*
- *“Not that awful Basil Hay?”*
- *“Well, perhaps he is.”*
- *“I used to meet him at Oxford sometimes.”*
- *“Well, if you are sure you can pay I’ll come to luncheon with you.”*
- *“Why there? It’s frightfully expensive.”* (18, 99).

Adam shunchalar inqiroz davridagi, Imogenni tushlikka taklif qilish uchun ham puli yo‘q. U moliyaviy ahvoli yaxshi bo‘lmagani uchun sevgan qizidan umid qilyapti. *“To‘lashingga ishonching komil bo‘lsa, birga tushlik qilamiz”*, deydi. Yozuvchi moliyaviy qiyinchilikda qolgan odamlarni tasvirlar ekan, aynan o‘sha davrda yozuvchi ham inqiroz davrini boshdan kechirayotgan bo‘ladi. Ivlin Voning avtobiografiyasini o‘qib turib, uning qarzlarni onasi yopganligi, ijodining boshida kitoblari tez sotilmagani uchun ota-onasidan pul so‘rab turganligi haqidagi ma’lumotlarga duch kelasiz. Bundan anglashiladiki, Adam obrazini yaratishda yozuvchining shaxsan o‘zi *“model”* vazifasini bajargan. Adib qahramonini tushkunlikda, sovuqqon, befarq, umidsizdek tasvirlasa-da, qahramonlar ich-ichidan umidi so‘nmasligini xohlaydi. Ammo asar so‘ngida ular ishongan, suyangan umid yo‘qqa aylanadi. Hikoya qahramonining suvdagi aksi bilan suhbat o‘tkir satirik ifodani yuzaga keltirgan, adib grotesk vositasidan foydalangan ya’ni o‘z davrining ziyoli qatlami vakili sifatida iqtisodiy tanglikning ayovsiz zarbasiga uchragani, tushlik qilish uchun puli yo‘q qahramon hatto sevgilisidan umidvor bo‘lishi, onasidan o‘z xarajatlari uchun pul olishga majburligi, albatta, uning ichki muvozanatini ag‘dar-to‘ntar qilib yuboradi. Ziyoli qatlam vakili bo‘lishiga qaramay, chor-nochor kun kechiradi.

Adibning *“Dikkensni yoqtirgan odam”* hikoyasida ham erkidan mahrum bo‘lgan, umidi sarobga aylangan, jur‘atsiz erkak obrazi gavdalantirilgan. Asar qahramoni Henti Braziliya chakalakzorlarida adashib qoladi, vino ichib sarxush bo‘ladi va hushi o‘ziga kelgach anglaydiki, janob Mak Master uyida to‘r belanchakda cho‘zilgan holatda yotardi. U har kuni janob Mak Masterga Dikkens qalamiga mansub asarlardan o‘qib beradi. U uyimga ketishim kerak deganda, janob Mak Masterga hali o‘qilmagan asarlar ko‘pligini va keta olmasligini aytadi. Shu asnoda, asar qahramonining tutqunlikdagi erksiz hayoti boshlanadi. Bu asari orqali yozuvchi ichkilikka mukkasidan ketgan, erksiz, umidsiz odamlar hayotini satira ostiga olgan.

Xulosa

Asar so‘ngida Hentini do‘stlari qidirib kelishganda, janob Mak Master uning tirikligini oshkor qilmaydi, o‘sha paytda Henti chakalakzordagi qandaydir o‘simlikni tanovul qilib, uning ta’sirida hushsiz yotgan bo‘ladi. Janob Mak Master giyoh orqali Hentining ongiga ta’sir qilib, uni ongsiz bo‘lishiga sababchi bo‘lib, unga xizmatkoridek muomalada bo‘ladi. Jamiyatda o‘z o‘rniga ega, mustaqil, hur fikrli

odamning giyoh ta'sirida tushib, boshqa odam tomonidan boshqarilishi kuchli satirik mohiyat kasb etgan. Janob Mak Master Hentining do'stlariga nishona sifatida uning soatini, dastlabki kunlarda tushgan suratlarini beradi. Ular do'stlarining daragini topib, mamnun holda ortga qaytishadi. Henti hushiga kelganida: "Endi biznikiga hech kim tashrif buyurmasa kerak. O'qishdan o'zga zavq beradigan ishimiz yo'q", — deydi janob Mak Master. Agar qahramonning aql-u hushi joyida bo'lganida u uyini izlab, topgan bo'lar edi.

Henti ozodlikka chiqolmaydi, endi u janob Mak Master bilan birga yashashga mahkum. Ozod, hur odamning erksizlikka duchor bo'lgan hayoti asarda bayon etilgan. O'zi harakat qilganda ham, do'stlari izlab kelganda ham u oldingi ozod hayotiga qaytolmaydi. Asar qahramoni ojiz, o'zining huquqlarini himoya qilolmaydi, judayam nochor ahvolda. Shu jihati bilan asar qahramoni Abdulla Qahhorning nochor, ojiz ahvoldagi erkak obrazlariga yaqin turadi. Irodasi sust, o'z haq-huquqlarini himoya qilolmaydigan odamlarning beqaror, subutsiz hayoti fojialarga to'la bo'lishiga ikkala ijodkor ham achchiq kinoya qiladi.

Xullas, satirik asarlarda shaxsiy kichik nuqsonlar personajlarning individual nomukammalliklarini hajviy tasvirlash bilan solishtirganda, satirik kulgining mohiyati yanada teranroq namoyon bo'ladi. Satirada jiddiy ziyon yetkazuvchi, qolaversa, bir kishiga emas, balki ko'pchilikka ijtimoiy zararli bo'lgan har qanday o'ta salbiy hodisalarni keskin, qat'iy, so'zsiz qoralash va o'tkir hajv mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abrams M.H. A Glossary of Literary Terms. — Boston: "Cornell University Press", 1999. — 275 p.
2. Coyle M., Peter Garside and others. Encyclopedia of Literature and Criticism-Routledge. — Wales: 1993. — 211 p.
3. Cuddon J.A. Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. — London: "Penguin books", 1999. — 780 p.
4. Gorkiy M. Adabiyot haqida. — Toshkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962. — 145 b.
5. Hastings S. Evelyn Waugh. A biography. Houghton Mifflin Company. — Boston, New York. 1994. — 195 p.
6. Johnson E. The Nature and Value of Satire. — New York, 1945. — 365 p.
7. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug'ati. — Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. — 87 b.
8. Park C. Carnivalism and Engaging Journalism in the Current-Affairs Podcasts in South Korea. Advances in Journalism and Communication, 2016, No 4, 75-88. — URL: www.scopus.com
<http://dx.doi.org/10.4236/ajc.2016.43008> .
9. Qahhor A. Asarlar. Besh jildlik. 3-jild, — Toshkent, 1988. — 198 b.
10. Qahhor A. Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. — Toshkent: G'afur G 'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973. — 214 b.
11. Qahhor A. Muhabbat. — Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014. — 226 b.

12. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. (Nutq, maqola, suhbat, taqriz va yozishmalar.) — Toshkent: Yosh gvardiya, 1968. — 141 b.
13. Qodiriy A. Ijod mashaqqati. Badiiy ijod to'g'risidagi fikr va mulohazalar. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 228 b.
14. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. — T.: Akademnashr, 2013. — 141 b.
15. Chris B. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms. — Oxford: Oxford University Press, 2001. — 236 p.
16. Top 10 Satire Quotes. — URL: <https://www.brainyquote.com/lists/topics/top-10-satire-quotes>.
17. Waugh E. A Little Order. — London, 1977. — 233 p.
18. Waugh E. The Complete stories of Evelyn Waugh. Little, Brown and Company. — Boston, New York, London, 1999. — 611 p.
19. Аналитика художественного: введение в литературоведческий анализ / В. И. Тюпа. — Москва: Лабиринт: Издательство РГГУ, 2001. — С. 185–187.
20. Бахтин М.М. Романда замон ва хронотоп шакллари/ Узок Жўрақулов таржимаси. — Тошкент, 2015. — 115 б.
21. Бахтин М.М. Собрание сочинений. — М.: Русские словари, 1997. — 369. — URL: <https://djvu.online/file/b6z4Uj9wn9MDm>
22. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. Т.5. — Москва, 1954. — 156 с.
23. Гиленсон Б.А. Античная литература. Древний Рим. Книга 2. Учебное пособие для студентов филологических факультетов педагогических вузов. — Москва: Издательство «Флинта», Издательство «Наука», 2001. Источник: <http://antique-lit.niv.ru/antique-lit/gilenson-drevnij-rim/index.html>.
24. Жалилова Л. XX аср бошидаги Америка сатирик новелласининг поэтикаси; Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) диссер. автореф. — Бухоро, 2021. — 11 б.
25. Мифы народов мира: Энцикл. в 2 т. / гл. ред. С.А. Токарев. — 2-е изд. — Москва: Советская энциклопедия, 1988. — Т. 2: К—Я. — С. 415–416.
26. Римская сатира: Пер. с латин. /Сост. и науч. подгот. текста М. Гаспарова. — Москва: Худож. лит., 1989. — 549 с. — URL: <https://djvu.online/file/rjL50IdE9hJbX>

References

1. Abrams M.H., *A Glossary of Literary Terms*, Boston: Cornell University Press, 1999, 275 p.
2. Coyle M., *Encyclopedia of Literature and Criticism-Routledge*, Wales: 1993, 211 p.
3. Cuddon J.A., *Dictionary of Literary Terms and Literary Theory*, London: Penguin books, 1999, 780 p.
4. Gorkiy M., *Adabiyot haqida* (About Literature), Tashkent: Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1962, 145 p.
5. Hastings S., Waugh E. *A biography*. Houghton Mifflin Company, Boston, New York. 1994, 195 p.
6. Johnson E., *The Nature and Value of Satire*, New York, 1945, 365 p.

7. Urayeva D., Quvvatova D. *Jahon adabiyoti atamalarining izohli lugati* (Explanatory Dictionary of World Literature Terms), Tashkent: Turon zamin ziyo, 2015, 87 p.
8. Park C., Carnivalism and Engaging Journalism in the Current-Affairs Podcasts in South Korea. *Advances in Journalism and Communication*, 2016, No 4, pp. 75-88, available at: [www.scopus.com.
http://dx.doi.org/10.4236/ajc.2016.43008](http://dx.doi.org/10.4236/ajc.2016.43008).
9. Kahhor A., *Asarlar. Besh jildlik. 3-jild*, (Works. Five volumes. Volume 3,) Tashkent, 1988, 198 p.
10. Kahhor A., *Adabiyotimiz avtobiografiyasi* (Autobiography of our literature), Toshkent: Gafur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973, 214 p.
11. Kahhor A., *Muhabbat* (The love), Tashkent, Yangi asr avlodi, 2014, 226 b.
12. Kahhor A., *Yoshlar bilan suhbat* (Conversation with young people), Tashkent: Yosh gvardiya, 1968, 141 p.
13. Kodiriy A., *Ijod mashaqqati* (The pain of creativity), Tashkent: Uqituvchi, 1995, 228 p.
14. Kuronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of literary studies), Tashkent: Akademnashr, 2013, 141 p.
15. Chris B., *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*, Oxford: Oxford University Press, 2001, 236 p.
16. *Top 10 Satire Quotes*, available at: <https://www.brainyquote.com/lists/topics/top-10-satire-quotes>.
17. Waugh E., *A Little Order*, London, 1977, 233 p.
18. Waugh E., *The Complete stories of Evelyn Waugh*. Little, Brown and Company, Boston, New York, London, 1999, 611 p.
19. *Analitika khudozhestvennogo: vvedenie v literaturovedcheskii analiz, V.I.Tyupa*. (Art analysis: an introduction to literary analysis / V. I. Tyupa.), Moscow: Labirint: Izdatel'stvo RGGU, 2001, pp. 185–187.
20. Bakhtin M.M., *Romanda zamon va khronotop shakllari* (Time and chronotope forms in the nove), Toshkent, 2015, 115 p.
21. Bakhtin M.M., *Sobranie sochinenii* (Collected Works), Moscow: Russkie slovari, 1997, 369 p, available at: <https://djvu.online/file/b6z4Uj9wn9MDm>
22. Belinskii V.G., *Polnoe sobranie sochinenii. T.5*. (The Complete Works. Vol.5.), Moscow, 1954, 156 p.
23. Gilenson B.A., *Antichnaya literatura. Drevnii Rim. Kniga 2* (Ancient literature. Ancient Rome. Book 2.), Moskva: Flinta, Nauka, 2001, available at: <http://antique-lit.niv.ru/antique-lit/gilenson-drevnij-rim/index.html>.
24. Zhalilova L., *10 asr boshidagi Amerika satirik novellasining poetikasi; Filol.fan. fals. d-ri (PhD) disser. avtoref*. (Poetics of the American satirical novel at the beginning of the 20th century Extended abstract of Doctor's thesis), Bukhoro, 2021, 11 p.
25. *Mify narodov mira: Entsikl. v 2 T.* (Myths of the peoples of the world: An Encyclopedia in 2 volumes), Moscow: Sovetskaya entsiklopediya, 1988, pp. 415–416.
26. *Rimskaya satira* (Roman Satire), Moscow: Khudozh. lit., 1989, 549 p, available at: <https://djvu.online/file/rjL50IdE9hJbX>